



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI REKTORINING**  
**BUYRUG‘I**

2024 - yil «24» 09

376 -son

Toshkent shahri

**Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 06.09.2024-yildagi**  
**03/23-2602-son xati ijrosi to‘g‘risida**

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi 06.09.2024-yildagi 03/23-2602-son xati orqali O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan Adliya vazirligi va Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bilan hamkorlikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonun ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-210-son qarorining 6.1-bandi, 2-ilovasining 28 va 29-bandlari ijrosi yuzasidan ishlab chiqqan uslubiy qo‘llanma, uslubiy tavsiyalar va illustrativ tarqatma materiallarini tizimdagi barcha tashkilotlarga rahbarlik va ijro uchun yubormoqda (ilova qilinadi).

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 06.09.2024-yildagi 03/23-2602-son xati ijrosini ta‘minlash maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. Barcha prorektorlar, fakultet dekanlari va bo‘lim boshliqlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonun ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-210-son qarorining 6.1.-bandi, 2-ilovasining 28 va 29-bandlari ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy qo‘llanma, uslubiy tavsiyalar va illustrativ tarqatma materiallari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ushbu uslubiy qo‘llanma va uslubiy tavsiyalar barcha xodimlar e‘tiboriga yetkazilsin.

3. Moliya va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor (S.Abdullayev), Bosh hisobchi (G‘.Sharipov), Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i (B.Xoshimov)lar zimmasiga barcha prorektorlar, fakultet dekanlari va bo‘lim boshliqlarini illustrativ tarqatma materiallaridan ish

jarayonida foydalanish maqsadida hamda ish stolida eslatma sifatida joylashtirish uchun bosmaxonaga buyurtma berish vazifasi yuklansin.

4. Devonxona mudirasi (F.Turayeva)ga:

4.1. Mazkur buyruq qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli ijrochilarga yetkazilsin.

5. Mazkur buyruq ijrosi nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

**Rektor**



**I.Tuxtasinov**